

## TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING MOHIYATI VA MUAMMOLARI.

*Nosirova Feruza Baxodir qizi*

*Osiyo Xalqaro Universiteti boshlang'ich ta'lif yo'naliishi magistranti*

*Ilmiy rahbari: Tillaboyeva Matlab Muhammadovna*

**Annotatsiya :** Pedagogik texnologiya, «jamiyat-ta'lif» tizimi, o'quv materialni to'la o'zlashtirish, ilmiylik tamoyili, loyihalanish tamoyili, tizimlilik tamoyili, maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili, faoliyat yondashuvi tamoyili, boshqaruvchanlik tamoyili, qayta takrorlanish tamoyili, samaradorlik tamoyili, pedagogik texnologiyaning bloksxemasi, pedagogik-texnologik xarita, maqbullashtirilgan o'quv jarayon.

**Abstract:** Pedagogical technology, «community-education» system, full mastery of educational material, principle of scientificity, principle of design, principle of systematicity, principle of goal orientation, principle of activity approach, principle of manageability, principle of repetition , the principle of efficiency, the flowchart of pedagogical technology, the pedagogical-technological map, the optimized educational process.

**Аннотация:** Педагогическая технология, система «сообщество-обучение», полное овладение учебным материалом, принцип научности, принцип конструктивности, принцип системности, принцип целенаправленности, принцип деятельностного подхода, принцип управляемости, принцип повторения, принцип эффективности, блок-схема педагогической технологии, педагогико-технологическая карта, оптимизированный образовательный процесс.

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 – ming yillikda davlatimiz ta'lif sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi. Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan va soxta tafakkurlash

usulidan voz kechgan, qanoatli, o‘zgalar fikrini xurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini ko‘zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qay darajada ta‘limni texnologiyalashtirish bilan bog‘liq. Dastlab “texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – “texos” (techne) – san‘at, hunar va “logos” (logos) – fan so‘zlaridan tashkil topib “hunar fani” ma‘nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat ob‘ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta‘sir etish natijasida mahsulot yaratishh borasidagi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta‘rifni tadqiqot mavzusiga ko‘chirish mumkin, ya‘ni: Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta‘sir ko‘rsatish va aks ta‘sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishining kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya o‘qitish jarayonining o‘zaro bog‘liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini qurish, ularni joriy etishh shartlarini aniqlashtirish, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta‘minlaydi. Yoxud Pedagogik texnologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta‘limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig‘indisidir. Texnologiya o‘zining egiluvchanligi, natijalarning turg‘unligi, smaradorligi, oldindan loyihamanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi. Yuqorida keltirilga ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, Pedagogik texnologiya belgilangan boslang‘ich maqsad va mazmun asosida o‘quv jarayonini loyihamash sifatida talqin etilayapti. Bu bir jihatdan to‘g‘ri, lekin teranroq fikr yuritilsa uning bir yoqlamaliligi ko‘zga tashlanadi yoki bunday yondashuvlarda o‘quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchiliklarni birinchi bo‘lib akademik V.P.Bespalko payqadi va o‘zining yirik asarida “Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirishh jarayonining loyihasidir” deb ta‘rifladi. [1] Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat -

e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'limgan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan bosqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, cunki ular ham bosqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Muammoli o'qitish texnologiyasi muammoli o'qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o'qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruktsiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat. Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda masho'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatları rivojlanadi. [2] Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu erda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyo'otishdir. Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantio'i o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, echimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqlashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yyechishni taqozo etadi. Tahsil oluvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. O'quv materialini muammoli taqdim

etilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o‘quvchilar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni echimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi. Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning echimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tuo‘iladi. O‘quvchi noma’lum echimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi sub’ekt-ob’ekt-sub’ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi. Muammoli o‘qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o‘quv yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo‘ladigan zaruriy ob’ektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa barcha sohalarning harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu sababli muammoli o‘qitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va yechishdan iboratdir. Muammoli o‘qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni yechish maqsadida joriy etiladi, u nostandard masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan fikrlashni shakllantiradi. [2]

Muammoli o‘qitish samaradorligining to‘rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg‘otishni ta’minalash;
- muammo echimidagi har bir bosqichda paydo bo‘ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta’minalash (ma’lum va noma’lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo echimida olinadigan axborotni o‘quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va o‘quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kyechishi, ya’ni o‘quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e’tiborsiz va ijobatsiz qolmasligi zarur.

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi ta‘lim-tarbiya amaliyotida eng samarali va tejamli o‘quv jarayonlarini shaxsni kasb egasi sifatida shakllantiruvchi pedagogik, psixologik qonuniyatlarni aniqlash, shuningdek falsafa, sotsiologiya,fiziologiya, matematika, kibernetika, informatika va boshqa fanlarning

qonuniyatlaridan foydalanishh yo'llarini aniqlashdan iborat. Bugun esa Pedagogik texnologiya mavzusi bo'yicha mamlakatimizda nazariy va amaliy konferentsiyalarini uysushtirish, vaqtli matbuotlarda maqolalarning tez-tez ko'zga tashlanib turishi ijtimoiy voqelikka aylanib borayotganligi quvonchlidir.

### **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. N. Azizzxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.
2. 1. Z.A.Raxmonqulova va boshqalar. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini o'qitish bo'yicha seminar modullari. Toshkent - 2010.
3. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISODMOLIYA, 2009, 240 b.
4. Akramova X, Aralova I. Maktabgacha ta'lim ypshidagi bolalarni nutq nuqsonlarini korreksiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlari. „Xalq ta'limi” O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining Ilmiy-metodik jurnali 2021
5. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. "Nasaf" 2000 y.-80 b.
6. Talipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari: O'rta maxsus va kasbhunar ta'limi muassasalari biologiya o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2002.
7. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005.
8. O'. Tolipov. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy kO'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. T. "Fan".- 167 b. 2004y.
9. G'afforova, A.Qurbanov, E.Godfri. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. Qarshi "Nasaf". 2003y.-112 b.
10. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.,2001
11. Choriev Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni, Qarshi